PEDAGOGIKADA TA’LIM VA TARBIYA UYG‘UNLIGI

Yarlakabov Umirzoq Mamatqulovich
Sambxram universiteti dotsenti,
Bekmuradov G‘iyos Nomoz o‘g‘li
JizPI, “Umumtexnika fanlari” kafedrasi, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya uyg'unligi, ta’lim va tarbiya mazmunining uyg‘unligi tamoyili, ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash. Yaxlit ta’lim - tarbiya jarayonida ikkala o‘zaro bog‘liq juftlik, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tarbiya ,ta’lim va tarbiya, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, axloq, axloq-odob, xulq-atvor, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, tarbiyaviy bilim, ko‘nikma.

Аннотация

В данной статье изложен принцип гармонии образования и воспитания, принцип гармонии содержания образования и воспитания, принцип системности и последовательности образования. Целостное образование – это детальное описание двух взаимосвязанных пар процесса образования, основанное на новом и здоровом педагогическом подходе к образованию и связанным с ним процессам.

Ключевые слова: Образование, воспитание, образование и воспитание, гармония образования и воспитания, нравственность, нравственность, поведение, умственное воспитание, нравственное воспитание, учебные знания, умения.

Annotation

In this article, the principle of the harmony of education and upbringing, the principle of harmony of the content of education and upbringing, the principle of systematicity and consistency of education is stated. Both interdependent pairs in the process of holistic education and upbringing are described in detail, based on a new and healthy pedagogical approach to education and related processes.

Key words: Education, upbringing, education and upbringing, harmony of education and upbringing, ethics, morals, behavior, mental education, moral education, educational knowledge, skills.

Ta’lim va tarbiya mazmunining uyg‘unligi tamoyili – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo‘lib, bunda egallangan bilim va ko‘nikmalarni hayotga qo‘llay olishga o‘rgatiladi, hayotda ta’lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan uyg‘unlikda rivojlanishi ta’minlanadi. Yaxlit ta’lim - tarbiya jarayonida ikkala o‘zaro bog‘liq juftlik, ya’ni bilim berish va tarbiyaviy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta’limiy – tarbiyaviy bilimlar va ko‘nikmalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish, ob’ektiv borliqdagi qonuniyatlarni o‘rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim oluvchilarga bilim berishda egallangan bilimni amalda ishlatishga o‘rgatish bilan birga ta’lim tarbiyalovchi ham bo‘lishi kerak.

“Tarbiya” so‘zining ma’nolari ko‘p bo‘lsa-da, milliy an’analardan kelib chiqsak, tasavvurda avvalo uning “axloqiy” sifati uyg‘onadi. Sababi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo‘yishgan. Ammo hozirgi zamon ta’lim tizimida “tarbiya” so‘zidan chekinish holatlari seziladi, hatto qonun ham “Ta’lim to‘g‘risida” deb atalgan. Shu o‘rinda aytish joizki bugungi kunda aynan maktab ta’lim tizimida tarbiyaning keskin pasayishi, ta’limning pasayishiga olib kelmoqda ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilari tarbiyasiz va o‘qituvchilarni behurmat qilishlariga aksariyat ota-onalar sababchi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Chunki oxirgi paytlarda o‘quvchini tartibga chaqirib koyigan o‘qituvchini o‘quvchining ota-onalari kelib “Sen ta’limingni ber,tarbiyasi bilan ishing bo‘lmasin” deydigan ota-onalar ko‘payib qoldi.Lekin ular bilmaydiki ta’limni tarbiyadan alohida tasavvur qilib bo‘lmaydi,keyin o‘quvchi ilmsiz bo‘lsa yana o‘qituvchini aybdor qilishadi.Ta’lim sohasida oxirgi paytlar juda oqsashlar bo‘lmoqda ayniqsa maktablarda buni yaqqol ko‘rish mumkin.O‘tmishga bir

nazar solaylik ota-bobolarimiz tarbiyani qanday ajoyib tarzda olib borishgan, yoshi ulug‘larimizdan so‘rasak ota-onalari ularni o‘qituvchilariga “Eti sizniki suyagi bizniki” naqlida o‘qitishga berishgan, bu so‘zlar bejiz emas edi.Shuning uchun ham tariximizda buyuk, salohiyatli,yetuk bobolarimiz yetishib chiqqan. Shu o‘rinda “ta’lim” va “tarbiya” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

- Ta’lim-o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.Ta’lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta’limiy faoliyatni tashkil etishda o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quv materiali, o‘quvchi boshqa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

- Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o ‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Tarbiya-shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi.

Milliy tarbiya tarixining atoqli namoyandalari Fitrat va Abdulla Avloniy qarashlarida “tarbiya” so‘zining ma’no qamrovi “ta’lim”ga qaraganda birmuncha kengligini ta’kidladik, hatto “ta’lim” mazmun-mohiyati jihatidan “fikr tarbiyasi” yoki “aql tarbiyasi” sifatida tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi. Umuman, tarbiya so‘zida yoshlarni (ham jismonan, ham axloqan, ham aqlan) barkamol avlod sifatida tarbiyalash tushuniladi. Ya’ni sodda qilib aytganda, “tarbiyali bola” barkamol avlod demakdir. Hozirgi zamon jahon pedagogikasida tarbiyaga turlicha ta’rif berilayotgan bo‘lsa-da, biz uchun sharq mutafakkirlari qoldirgan meros o‘zining hayotiyligi va mazmunan keng qamrovliligi bilan qimmatlidir. Ayrim hollarda ta’lim muassasalarida ta’limni tarbiyadan ustun qo‘yish, tarbiyani e’tibordan chetda qoldirish holati yoki tarbiyani ta’lim orqali amalga oshirish haqidagi fikrlar ilgari surildi. Ammo jahon pedagogikasidagi bu tajribalar o‘zini oqlamaganligini hayot ko‘rsatib turibdi. Pedagogik jarayonda axloqiy tarbiyani ham, ta’lim tizimidagidek (davlat ta’lim standartlari singari) uzluksizlik talablaridan kelib chiqib shakllantirish qanchalik katta va murakkab masala bo‘lsa-da, amalga oshirish lozim. Albatta, ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchalarini qolipga solib bo‘lmaydi, ammo talablar shaklida hayotdan ajralmagan holda ifodalash mumkin. Bu boradagi samarali vositalardan biri, shubhasiz, milliy adabiyot o‘qitishni yanada takomillashtirishdir. Chunki milliy adabiyotimiz azaldan odobga asoslanganligini yodda tutishimiz lozim.Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongigina emas, balki histuyg‘ularini ham o‘stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o ‘quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Tarbiyaning maqsad-mohiyati davrlar o‘tishi bilan o‘zgarmaydi, barcha millat uchun ham bir darajada ahamiyatli. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar tarbiya mazmun-mohiyatini belgilaydi. Bugun nemis, rus yoki ingliz maktabida ham, o‘zbek maktabida ham ta’lim muassasasining tarbiyaviy vazifalarini kuchaytirish, ta’limning “tarbiyalovchi” faoliyatidan qoniqmaslik holatlari olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Tarbiyaga asoslangan maktablar, o‘quvchini hayotga tayyorlashni, ijtimoiylashuvini asosiy maqsad bilayotgan ta’lim muassasalari tajribalarini o‘rganishga ehtiyoj tug‘ilayotganini ta’kidlash joiz.Xususan oliy ta’limda joriy qilingan qonun va qoidalarni maktab ta’lim tizimiga ham joriy qilish kerak. Maktab o‘quvchisi darslarga surunkali qatnashmasada lekin afsuski maktabni bitirayapti, maktab tizimida ham institut tizimidek o‘qishdan chetlatish ya’ni haydash kabi qonuniy choralarni joriy qilish kerak. Anashundagina oliy ta’lim tizimida ham ta’lim sifatida sezilarli darajada o‘sish seziladi va dunyo talabidagi kadrlar yetishtirishga erishishimiz mumkin.

Ta’lim berish yuksak darajada tashkil qilingan yapon yoki koreys maktablari bitiruvchilari o‘z xalqining milliy qadriyatlari asosida tarbiya topganini bir qarashda, ularning oddiygina salomidan sezamiz. Demak, ta’lim sohasida dunyo mamlakatlarining ilm-fan yutuqlarini o‘qib o‘rganish mumkin, ammo tarbiyada milliy qadriyatlar, urf-odatlardan chekinish yoki ularni ikkinchi darajaga tushirib qo‘yish mumkin emas.Bugungi kunda tarbiyaning ibratga, namunali amaliy faoliyatga asoslanganini ham unutmaslik joiz. Ya’ni aqliy tarbiya (ta’lim) aniq dastur va

rejalar asosida oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borsa, tarbiyada (axloqiy tarbiya) jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan yoshlarda o‘z vaqtida tegishli munosabat uyg‘otish, aniq maqsad va natijaga yo‘naltirilgan reja va dasturlar ijrosiga qo‘shimcha ravishda ijodiy yondashuv, ijtimoiy muhitni sinchiklab o‘rganish taqozo etiladi. Aqliy tarbiyaga nisbatan axloqiy tarbiyaning faoliyat qamrovi, oldiga qo‘yilgan vazifalar katta bo‘lib, buning samarali ijrosi uchun maktab imkoniyati torlik qiladi. Shunday bo‘lsa-da, ta’lim muassasasi tarbiya jarayonining tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki oilalar bolalarni nafaqat ta’limiy (fikriy), balki axloqiy va jismoniy tarbiyalash borasida turli darajada, hatto farzandiga odob qoidalarini o‘rgatishga qobil bo‘lmagan ota-onalar ham oz emas.

Pedagogika sohasidagi izlanishlari va faoliyati natijasida o`quvchilarga ham ta`lim, ham tarbiya bera oladigan, milliyligimizni o`zida aks ettirgan darslik va majmualar yaratishga asos bo`lib xizmat qila oladigan qo`llanma sifatida “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yaratdi. Ushbu didaktik asar odobaxloq masalariga ham bag`ishlangan bo`lib, unda asosan bola tarbiyasi, axloqi, bilim olishida o`qituvchining ahamiyati va vazifalari yoritilgan. Asar jadidchilar va ko`plab pedagoglarning taklifiga ko`ra yaratilganligi va o`z davrining ta`lim-tarbiya taraqqiyotida dasurulamal bo`lib xizmat qilgani boisikki marotaba qayta nashr qilingan. Asarda inson hech qachon yomon bo`lib tug`ilmasligi, uning hayotidagi tarbiyaning o`rni, barkamol inson bo`lib yetishishida ta`lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyos ekanligi va odob-axloq masalalari bayon etilgan. Ta`lim va tarbiyani bola ongiga singdirish o`qituvchining vazifasidir. Zero, Abdulla Avloniy ta`kidlaganidek: “Tarbiya va ta`lim orasida bir oz farq bor bo`lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir”. Agar ta'limni tarbiyadan ajratib qo‘ysa, ta'lim cho‘loq bo‘ladi. U holda ta'lim go‘yoki ma'lumotlar saqlanadigan quticha, idish va yana qandaydir narsaga aylanib qoladi. Natijada esa bu ma'lumotlar jamiyat uchun kerak bo‘ladigan komil insonni shaxsiyatini yetishtira olmaydi. Mana shuning uchun barcha ta'lim muassasalarida ma'lum bir yo‘nalish bo‘yicha ta'lim berish bilan birga tarbiyani ham berib ketish kerak, aks holda qanotsiz qush kabi parvoz qila olmaydi. Qush esa pavoziga qarab turib baholanadi. Yana ba'zilari esa ilmni eshitadi lekin uni yodda saqlab qolmaydi, tafakkur va tadabbur ham qilmaydi. Boshqalarga ham yetkazmaydi. Bularning misoli qattiq silliq, o‘ziga hech narsani yuqtirmaydigan, suvni ham qabul qilmaydigan yer kabidir. Albatta bu borada ta'lim bilan birgalikda xossatan ruhiy va aqliy tarbiya ishtirok etishi kerak.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish kerakki, ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta`kidlaganidek: “Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so`ng darajada muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog`liqdur.” Tarbiyasi bo`lmagan bolaning ongiga ta`limni singdirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiya uyg‘unlikda bir birini taqozo etgani bois, ularni ayricha tasavvur qilib bo`lmaydi. Ta’lim olish uchun tarbiya bo‘lmog‘i lozimdir. Zero, Abdulla Avloniy ta‘biri bilan aytganda: “Al-hosil, tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug‘at). O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T.: «Yangi asr avlodi», 2002.
2. M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekiston: yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. - T.: «Sharq» nashriyoti, 2004.
3. O.Hasanboyeva Tarbiyaviy ishlami tashkil qilish metodikasi. - T.: 2003.
4. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov Pedagogika tarixi. - T.: «o‘qituvchi», 2001.
5. M.G.Davletshin va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.: «O‘qituvchi», 2012.
6. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil. 31-36-bet.
7. O.Suvonov, S.Astanova. “Pedagogik mahorat”. -Guliston, 2010. 3. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova, N. Voxidova, K. Matnazarova. “Pedagogika” –Toshkent.